

## **Nemis dafn ma'rosimidagi erkin ma'ruzachining nutqiy etiketiga doir**

**K.Sh.Kaxarov**

**FarDU dotsenti**

**Annotatsiya:** mazkur maqolada nemis xalqida dafn marosimida o'ziga xos o'rinni tutuvchi erkin ma'ruzachi va ruhoniylari nutqlari haqida atroflicha fikr yuritiladi.

**Annotation:** This article will examine in detail the speech of a free speaker and priest, which occupies a special place in the funerals of the German people.

**Аннотация:** В данной статье будет подробно рассмотрена речь свободного оратора и священника, занимающая особое место в похоронах немецкого народа.

**Kalit so'zlar:** nutqiy etiket, erkin ma'ruzachi, ruhoniylari, dafn marosimi, vidolashuv xonasi, qabriston, oila.

**Key words:** speech etiquette, free speaker, priest, funeral, farewell room, cemetery, family.

**Ключевые слова:** речевой этикет, свободный оратор, священник, похороны, комната прощания, кладбище, семья.

Ma'lumki, oilaviy nutqiy etiketlar nafaqat kundalik turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan nutqiy jarayonlar, balki oilaviy hayotdagi xursandchilik, shodlik, qayg'uli, motam marosimlari bilan bog'liq nutqiy etiketlarni ham o'z ichiga oladi.

Biz quyida nemis xalqida dafn marosimida maxsus kasbga aylangan dafn marosimi ma'ruzachisining nutqiy etiketlarini ko'rib chiqmoqchimiz.

Dafn marosimida mustaqil ma'ruzachining ishslash usuli shundaki, uning nutqi shaxsiy va marhumning tarjimai holi bilan bog'liq bo'ladi. Albatta, ma'ruzachining nutqi marhum bilan tanishligi yoki u bilan bo'liq faqat yaxshi sifatlarini ta'riflovchi ifodalardan iborat bo'lishi lozim. Bunday holat islom

dinidagi xalqlar, shuningdek, o‘zbek xalqi uchun ham xos bo‘lib, odatda marhumning faqatgina yaxshi sifatlarini tilga olish yoki eslash odat tusini olgan. Nemis xalqida so‘nggi yillarda dafn marosimi madaniyati ya’ni, uni o‘tkazish odatlari yildan-yilga o‘zgarib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, cherkovning dafn marosimi bir necha o‘n yil ichida o‘z monopoliyasini yo‘qotib, dafn marosimida notiqlik bilan erkin shug‘ullanuvchi yangi kasb paydo bo‘ldi [1;46]. Bu shundan dalolat beradiki, kishilarning cherkov bilan aloqalari yillar davomida doimiy ravishda pasayib borayotganini ko‘rish mumkin.

Mamlakatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar dafn ma’rosimida ham o‘z aksini topa boshladi. Keyingi paytlarda Germaniya mamlakati bo‘ylab kishilarning yashash manzillari boshqa shaharda bo‘lsa, ish joylari esa yana bir boshqa shaharda bo‘lishi, oila a’zolarining tarqoq holda yashashlariga sabab bo‘la boshladi. Bu esa o‘z o‘rnida turli hududlarda turlicha o‘ziga xos ravishda o‘tkazib kelinayotgan dafn ma’rosimlarining globallashuviga olib keldi [2;59]. Shunday qilib, individuallashtirish tendensiyasi dafn marosimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Endi inson tanlashi mumkin bo‘lgan yoki tanlashi kerak bo‘lgan ko‘plab variantlar asta-sekin vujudga keldi. Bu marhumni dafn marosimidagi zamonaviy, badiiy dizayndagi maxsus xayrlashuv /Abschiedsräumendes Bestatungshauses/ yoki qabristondagi vidolashuv xonalarida /Abschiedsräumen auf dem Friedhof/ qo‘yish imkoniyati bilan bog‘liq bo‘ldi [2.65].

Dafn marosimida notiqlik qiladigan kishi “dafn marosimidagi ma’ruzachi” /Traurredner/ hech kimga bo‘ysunmaydi. Ular dafn marosimlari uchun erkin holda faoliyat yuritadilar. Bugungi kunda cherkov xodimi bo‘lgan ruhoniylar /Priester, Pfarrer/ cherkov nomidan cherkov a’zosining o‘limi munosabati bilan dafn ma’rosimida nutq so‘zlashi mumkin. Ruhoniylar hamrohlik yoki nutq so‘zlagani uchun ularning faoliyati cherkov solig‘i daromadlaridan moliyalashtiriladi. Dafn marosimidagi ma’ruzachi esa

marhumning yaqinlari tomonidan kelishilgan holda xizmat xaqqini olishi mumkin.

Ko‘rinadiki, bugungi kunda dafn marosimida ma’ruzachi sifatida erkin ma’ruzachi yoki ruhoniylar qatnashib kelayotganliklarini ko‘rish mumkin. Ularning nutqiy etiketlarida va nutq mazmunida ham farqlanishlarni ko‘rish mumkin. Cherkov xodimi xisoblangan ruhoniylar jamiyat a’zolarini doimiy ravishda qo’llab-quvvatlash maqsadida ishlashlari, Allohning kalomini yetkazishlari, diniy kitoblarda keltirilgan ifodalari yordamida kishilarga tasalli berishlari kabilar ularning nutqlariga xos bo‘lgan xususiyatlardir. Erkin nutq so‘zlovchilar esa qarindoshlar nomidan gapirishlari, marhumga xos bo‘lgan yaxshi sifatlariga to‘xtalishlari, agar marhum bilan tanish bo‘lsa, o‘zi bilgan sifatlari yoki xotiralariga tayanib, nutq so‘zlashlarini kuzatish mumkin. Lekin har ikkala holatda ham dafn marosimi motam tutganlarga tasalli berish uchun nasroniylik majburiyatini bajaradigan xizmatlardir. Protestant va katolik dafn marosimlarida va’zda marhumning shaxsiy hayotiga berilgan so‘zlar miqdori bilan farqlanishini kuzatish mumkin [4;134]. Dafn marosimida ma’ruzachilar, marosimning dizayni va mazmuni bo‘yicha hech qanday ko‘rsatmalarga bo‘ysunmasliklari, oldindan belgilangan marosimlar va tartiblar, qat’iy diniy e’tiqodlar va tasalli berish shakllari o‘rniga, barcha elementlar mijozlar bilan kelishilgan bo‘lishi kerakligi ko‘zda tutiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, nemis xalqida dafn ma’rosimi ma’ruzachilar uchun maxsus, qanday qilib yanada muvaffaqiyatli nutqlar yozish haqida ma’lumot beruvchi kitoblar ham nashr ettirilganini uchratish mumkin [5;63].

Dafn marosimi marhumning o‘limidan so‘ng yaqinlari uchun muhim burilish nuqtasi hamdir. Odatda barcha xalqlarda marhum bilan xayrlashish uchun qarindoshlar, do’stlar, tanishlar yig‘iladi. Motam marosimi uchun nutqni va marhum uchun maqtovli so‘zlarni takrorlab bo‘lmaydi. Shuning uchun dafn ma’rosimiga ma’ruzachi puxta tayyorgarlik ko‘rishi va vazifasini professional tarzda amalga oshirishi juda muhim xisoblanadi [4;89].

Dafn marosimi marhumni xotirlash va xayrlashish marosimi deb tushuniladi va unda kunning vaqt, joylashuvi, kiyim-kechak va xona dizaynidan tortib, mavjud vaqt va tartibgacha barcha jihatlari xisobga olinadi. Nutq so‘zlash ma’rosimning bir qismi bo‘lib, u musiqiy oranjirovka va marosim harakatlariga birlashtirilgan.

Dafn marosimida ma’ruzachining shaxsiyati va uning nutqini yaratish usuli marosimining muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlaydi. Vaqt va xona dafn nutqining mazmuni va shakli bilan bir qatorda nutqning vaqt va makoni hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu jihatlar nutqning mazmuni o‘z ta’sirini rivojlantira oladigan idishga o‘xshaydi. Mikrofon ishlamay qolsa yoki vaqt belgilanganligini hisobga olib, juda tez nutq so‘zlasa, eng yaxshi nutq motam tutuvchilarga yetib bormasligini kuzatish mumkin [4;92].

Nutq vaqtini vaziyatga moslashtirish ma’ruzachining mas’uliyatiga tegishlidir. Ma’ruzachi uchun oldindan aniq vaqt belgilanishi dafn ma’rosimi uchun alohida o‘rin tutadi. Ma’ruzachi oldindan unga qancha vaqt berilishini ham hisobga olgan holda ish tutmog‘i lozim bo‘ladi. Masalan, ma’ruzachi uchun oddiy gapirish tezligida 450 so‘zdan iborat nutq uchun besh daqiqa, o‘rtacha nutq uzunligi taxminan 1200 so‘z bo‘lsa, so‘zlash vaqt taxminan 13 daqiqani tashkil qiladi. Bundan nemis xalqi barcha soxada, jumladan dafn marosimida ham puntualikka e’tibor berishini anglash mumkin.

Bundan tashqari, dafn marosimi xonaning maydoni, dizayni ham xayrlashish imkoniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bunda nafaqat xona haroratiga, balki, odamlarni chalg‘itadigan va ichkariga to‘planishiga to‘sinqinlik qiladigan har qanday jihatlariga e’tibor qaratiladi. Dafn marosimi zalining akustikasi, yorqinligi, jihozlari va isitilishi odamlarning o‘zini xavfsiz his qilishiga yordam berishi, dafn ma’rosimida qatnashuvchilar ma’ruzachini tushunadimi yoki xonada so‘zlar bo‘g‘iq aks sado berishi kabilar ham atroficha rejalashtirilishlarini kuzatish mumkin [4;102]. Ko‘rinadiki, ma’ruzachi uchun ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri dafn ma’rosimida aytilishi kerak bo‘lgan nutqni tayyorlash anchayin qiyin kechishi, ayniqsa, ochiq havoda akustikani nazorat

qilish yopiq xonaga qaraganda oson bo‘lmasligi, agar dafn ma’rosimida qatnashuvchilar ko‘p bo‘lsa, uzoqroqda turganlar nima deyilayotganini sezmay qolishlari, bundan tashqari, keksa odamlar yoki sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolar bo‘lgan odamlar qabrda uzoq vaqt turishlari qiyinligi, issiqlik, sovuqlik, shamol yoki yomg‘ir tufayli chalg‘ishlar bo‘lishi, hech kim ob-havoga bog‘liq bo‘lgan bu sharoitlarni oldindan ko‘ra olmasligi, qandaydir ta’sirlar motam tutuvchilarning e’tiborini qanchalik ko‘p jalg qilsa, marosim va nutqning samarasi shunchalik past bo‘lishi kabilar ham nutqning sifati va samarasiga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin.

Ma’ruzachi o‘z roli haqida fikr yurita olishi va dastlabki suhbatda qarindoshlar bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatishga qodir bo‘lishi, qatnashuvchilar oldida nutq so‘zlash va turli auditoriyalarga moslashish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi, so‘zlar ifodali aytilganda katta ta’sir ko‘rsatishini nazarda tutishi lozim [6;57]. Tadqiqotimiz bo‘yicha kuzatishlarimizga ko‘ra, nutq og‘zaki yoki yozma bo‘lishi mumkin. Og‘zaki nutq yozma nutqqa qaraganda ta’sirchan kuchga egadir. Buning uchun ma’ruzachining xotirasi kuchli bo‘lishi, chunki, ismlarni, sanalarni va hayotiy voqealarni eslab qolishi talabetiladi. Nutqda murakkab jumla tuzilmalari, tushunarsiz xorijiy so‘zlar bo‘lmasligi, ravon ifodalanishi lozim boladi.

Dafn marosimida nutq so‘zlovchining nafaqat nutqi balki, yuz ifodalari, o‘zini tutishi, tanasining har bir harakati nimanidir ifodalashi, musiqa chalinayotganda u qayerga qarab turishi, boshning yengil egilishi yoki butun yuqori tananing egilishi kabilar muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nemis xalqida dafn marosimida erkin ma’ruzachi yoki ruhoni yozma bo‘lishi, nutqqa ajratilgan vaqt, marosim o‘tkaziladigan joylar, jixozlar o‘ziga xos o‘rin tutishi muhim ahamiyatga egadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Birgit Aurelia Janetzky. Trauer Reden. Leitfaden für Traueransprachen. – Düsseldorf: Fachverlag des deutschen Bestatungsgewerbes GmbH, 2020.

2. Wagner, Karl. Die Feier der Beerdigung. – Herder-Verlag. 2001.
3. Von Kanitz, Anja. Gesprächstechniken. – 3. Auflage, Haufe-Verlag. 2008.
4. Morgenthaler, Christoph. Trauer und Familie. Eine familiendynamische Sicht der Seelsorge an Trauernden. In: Wege zum Menschen, 46/1994,
5. McGoldrick, Monica; Gerson, Randy. Genogramme in der Familienberatung. – 2. Aktualisierte Auflage, Huber-Verlag.